

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)
magistratura mutaxassisligining
MALAKA TALABLARI**

ЎзР ОУМТВ
Бўйруқ № 344
“7 - 08 - 2023 йил”

Toshkent-2023

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil «7» 08 dagi344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda
Maktabgacha va mакtab ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>70111801-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)</i> magistratura mutaxassisligining umumiyl tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>70111801-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari..... <i>70111801-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarini tavsifi.....	4
1.2.	faoliyatlarini tavsifi..... <i>70111801-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.1.	<i>70111801-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.2.	<i>70111801-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	5
1.2.3.	<i>70111801-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>70111801-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>70111801-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)</i> ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varog'i.....	10

1. 70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratura tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

Magistratura o'quv dasturining hajmi ta'lim shakli (kunduzgi), foydalaniladigan ta'lim texnologiyalaridan qat'iy nazar 120 kredit birligini tashkil etadi.

Bir o'quv yili uchun magistratura ta'lim dasturining hajmi 60 kreditni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydag'i 5117-sodan qaroriga ko'ra, 70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) magistratura mutaxassisligi magistraturasida o'qish uchun kamida C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) magistratura mutaxassisligi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul – oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar;

- magistratura mutaxassisligining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

- o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari Davlat organlari;

- ta'lim sohasining magistratura mutaxassisliklaridan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar va boshqa manfaatdorlar.

1.2. 70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

– qo'shimcha ravishda oliy ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish;

– ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

– ilmiy va pedagogik matnlarni tarjima qilish;

– terminologik lug'atlarni tuzish, mos ta'lim yo'naliishlari bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida jarayonni loyihalashtirish va boshqarish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

qo'shimcha ravishda oliy ta'lim tizimi muassasalarida mutaxassislik bo'yicha o'quv-tarbiya va ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy va texnik loyihalari, ilmiy va pedagogik hujjatlarni yozma tarjima qilish, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi ob'ektlar majmuasini qamrab oladi.

1.2.3. Ta'lim sohasi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

• *ilmiy-pedagogik,*

• *ilmiy-tadqiqot;*

• *ma'naviy-ma'rifiy;*

• *tashkiliy-boshqaruv;*

• *oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi pedagogik faoliyatda va shu kabilarni o'z ichiga oladi.*

Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

Yo'naliish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.4. 70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:

70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq magistr bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- fanning zamonaviy yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o‘quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun sharoitlarni yaratish;

- ta’lim oluvchi shaxsining har tomonlama rivojlantirish jarayonini motivatsiyalash va faollashtirish, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsiyonalligiga erishish, didaktik vositalardan samarali foydalanish; zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish, mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish, har bir darsni tashxis etish, prognozlash va puxta loyihalashtirish;

- har bir darsning ta’limiy vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish va o‘zlashtirishning eng yangi texnologiyalarini qo‘llash, turli xildagi shakl, metod va vositalardan mos ravishda foydalanish;

- jamoaviy faoliyat usullari bilan birga ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil etishning turli shakllaridan foydalanish, tezkor qayta aloqani ta’minalash, nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, darsni mahorat bilan o‘tkazishni ta’minalash;

- ta’lim oluvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar (vatanparvarlik, tirishqoqlik, tartiblilik, mas’uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, tolerantlik va boshqalar)ni shakllantirish;

- pedagogik odob talablariga amal qilish, ta’lim oluvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo‘lish;

- ta’lim oluvchilarda o‘quv-bilish faoliyatiga doir ijobiy sifatlar, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni shakllantirish hamda rivojlantirish;

- ta’lim oluvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o‘rganish, hisobga olish, “rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish”, “o‘zib ketish” darajasidagi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish;

- ta’lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minalash maqsadida ta’lim-tarbiya shakl, metod va vositalarini hamda ta’lim texnologiyalarini oqilona tanlash va samarali qo‘llash;

- ta’lim oluvchilarni maxsus leksikografiya, terminografiya va terminshunoslikning nazariy va amaliy jihatlari bilan tanishtirish, shuningdek terminologik lug‘atlarni tuzishda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish;

- ta'lim oluvchilarning kasbiy faoliyatlarida pedagogik matnlarni tarjima qilish, tahlil va tahrirlash ko'nikmalarini rivojlantirish;

- ta'lim oluvchilarning o'zlashtirilayotgan o'quv dasturlari bilan bog'liqlikdagi bilish imkoniyatlari, ehtiyojlari va muvaffaqiyatlarini o'rganish va olingan natijalar asosida ta'lim, tarbiya va rivojlanishning individual yo'nalishlarini loyihalashtirish;

- ta'lim va tarbiya jarayonini ta'lim oluvchilarning yosh hamda psixofiziologik xususiyatlari, shu jumladan ularning ta'limiy ehtiyojlariiga mos keluvchi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish;

- pedagogik jamoa, ota-onalar, davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni tashkil etish;

- kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish.

- pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari hamda imkoniyatlarini o'rganish va tahlil qilish hamda olingan natijalar asosida individual metodik qo'llab-quvvatlash tizimini loyihalashtirish;

- pedagoglarning hamkorlikdagi metodik faoliyati natijalarini amalda qo'llanishini tadqiq etish, tashkil etish va baholash;

- ta'limiy dasturlarni va ta'lim oluvchilarning individualligini rivojlantirish yo'llarini loyihalashtirish;

- o'quv fanlari mazmuni, nazorat shakl va metodlarini hamda didaktik-korreksion materiallarini loyihalashtirish;

- o'qitish jarayoni sifatini ta'minlovchi ta'limiy muhitni loyihalashtirish;

- bo'lg'uchi pedagogik faoliyatni loyihalashtirish **malakalariga ega bo'lishi kerak**

- manbalarga asoslangan holda, innovatsion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hal etilishi lozim bo'lgan va takomillashtirish talab etiladigan yo'nalishlarga doir mavzularni aniqlay olish;

- ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish;

- zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, ta'lim-tarbiyaga doir nazariyalar, konsepsiylar, ilg'or tajribalardan foydalanish;

- ilmiy muammolarni hal etishning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'rganuvchilar orasida sog'lom ma'naviy muhitni tashkillashtirish;

- o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

- globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalana olish, turli diniy va missionerlik ta'sirlarga tqrashi ma'rifiy va milliy immunitetni rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qila bilish;
- faoliyat olib borayotgan tashkilotlarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;
- milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ta'lim-tarbiya jarayoni qatnashchilari va ijodiy jamoani boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;
- ilmiy va o'quv faoliyatni boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni takomillashtirish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi pedagogik faoliyatda:

- mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;
- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalihsida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish mahoratiga ega bo'lishi;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;
- mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;
- mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi yangi shakl, metodlar vositalarni o'zlashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish;
- elektron axborot ta'lim muhitida ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish;
- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

2. 70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim mutaxassisligi magistrlarining kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

-milliy g'oya va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bog'liqligini va uning asosiy maqsadlarini anglashi;

-ilmiy-tadqiqot jarayonini tavsiflash, xulosalarni ta'riflash va olingan natijalarni baholash, empirik va nazariy tadqiqot usullarini farqlash, kengaytirilgan tadqiqot rejasini ishlab chiqish, fundamental, amaliy, innovatsion loyihalarning bir-biridan farqini bilishi;

-ta'limga texnologik yondashuv, o'quv maqsadlarini aniqlashtirishi, pedagogik faoliyatni oqilona rejalshtirishi va tashkil etishi;

-axborot tizimlarini tashkil etishi va boshqarishi;

-amaldagi qonunchilik normalarini qo'llash orqali huquqiy masalalalarni hal qilishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;

- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish mahoratiga ega bo'lishi;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;

- mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;

- mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi yangi shakl, metodlar vositalarni o'zlashtirish va o'z-zini rivojlantirish;

- elektron axborot ta'lim muhitida ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish;

- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

2.3. 70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) magistratura mutaxassisligi o'quv rejasi va fanlar dasturlariga qo'yiladigan umumiy talablar

Magistratura mutaxassisligi o'quv rejasi va fanlar dasturlari bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi hamda kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

O'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi. Bunda o'quv jarayoni grafigi, haftalar kesimida o'qish vaqt, attestatsiyalar, amaliyotlar, tatillar, semestrlar bo'yicha o'tiladigan "Umummetodologik fanlar", "Mutaxassislik fanlari", mashg'ulotlar turlari, ajratilgan soatlar, kreditlar, fanlar kodi, Davlat attestatsiyasi va boshqalar ko'rsatiladi.

O'quv rejajarga kiritiladigan majburiy va tanlov fanlar turdosh oliy ta'lim muassasalar bilan hamkorlikda tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan belgilanadi.

2.3.1.70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha o'quv yuklamalari:

O'quv fanlari bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Fanlarga ajratilgan soat	Fanlarga ajratilgan kredit miqdori
Majburiy fanlar	1200	40
Tanlov fanlari	600	20
Malakaviy amaliyot	1800	60
Jami	3600	120

2.3.2.70111801 – Xorijiy ta’lim va adabiyot (ingliz tili) magistratura ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi

T.r.	Fanlar bloklari va bloklarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, kredit	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda
1	2	3	4
1.00.	Majburiy fanlar	40	1200
1.01.	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	5	150
1.02	Yangi Uzbekiston- Tarakkiyot strategiyasi, ta’lim tizimidagi isloxatlar	5	150
1.03	Kasbiy ma’naviyat	2	60
1.03	Oliy ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi	4	120
1.04.	Kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili	12	360
1.05.	Madaniyatlar qiyosiy tipologiyasi	4	120
1.06.	Lingvovidaktik tadqiqot metodlari	4	120
1.07.	Chog‘ishtirma lingvistika	4	120
2.00.	Tanlov fanlar	20	600
3.00.	Ilmiy faoliyat	60	1800
	JAMI	120	3600

2.4. Kvalifikatsiya:

O‘qituvchi-tadqiqotchi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lif yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli, malaka talablari, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot ob'ekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi

Kelishuv varag'i

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:
Toshket davlat pedagogika universiteti

Rektor  A. Kirgizbayev

2023 

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi
direktori  Sh. Yakubov

2023 yil « 26 » iyul

M.O. 

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi
direktori  Sh. Sattorov


2023 yil « 26 » iyul

M.O.

Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektor  Sh. Sharipov

2023 yil « 26 » iyul

M.O. 

Guliston davlat pedagogika instituti
rektori v.b.  A. Qalandarov

2023 yil « 26 » iyul

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lif yo'nalishi bo'yicha
malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lif
muassasalarini va asosiy kadrlar iste'molchilarini o'rtasida
KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“26” iyul 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lif markazi direktori Sh.Sattarov, Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori prof. Sh.Sharipov, Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori prof. A.Kirgizbayev birgalikda TDPUsa ishlab chiqilgan quyidagi magistratura ta'lif yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70111801- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) magistratura ta'lif yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta'lif sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalarini faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-289-son hamda “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-290-son Qarorlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrda hisobga olingan (hisob raqami 43) O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi «Oliy ta'lifning davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar» O'zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida”gi 35-2021-son buyrug'i hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilarini tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lif yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta'lifi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lif markazi direktori**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori, professor**

**Toshkent davlat pedagogika universiteti
rektori, professor**

Sh.Sattarov

Sh.Sharipov

A.Kirgizbayev

